PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Reymbayev Abdulla
Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti “Jinoyat huquqi, protsessi
va krimnalistika” kafedrasi dotsent v.b
Sadullayev Jamshid
Qoraqalpoq davlat universiteti
Magistratura bo’limi “Jinoyat qonunchiligini
qo’llash nazariyasi va amaliyoti”
mutaxasissligi 2-kurs magstranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23230455

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada professor-o‘qituvchilar faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan institutsional mexanizmlar tahlil qilinadi. Ta’lim tizimida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish hamda etik me’yorlarni joriy etish muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda normativ-huquqiy bazaning o‘rni, raqamli texnologiyalardan foydalanish va mustaqil monitoring tizimlarining samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi samarali institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, oliy ta’lim, professor-o‘qituvchilar, institutsional mexanizmlar, shaffoflik, hisobdorlik, ichki nazorat, etik kodeks, manfaatlar to‘qnashuvi, raqamlashtirish, monitoring, korrupsiyaga qarshi siyosat.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОРРУПЦИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА

Аннотация: В данной научной статье анализируются институциональные механизмы, направленные на предотвращение коррупции в деятельности профессоров-преподавателей. Обеспечение прозрачности и подотчетности в системе образования, предотвращение конфликта интересов, усиление систем внутреннего контроля и внедрение этических норм рассматриваются как важные факторы. Также будет освещена роль нормативно-правовой базы в борьбе с коррупцией, использование цифровых технологий и эффективность независимых систем мониторинга. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию эффективных институциональных механизмов противодействия коррупции в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: коррупция, высшее образование, профессора и преподаватели, институциональные механизмы, прозрачность, подотчетность, внутренний контроль, этический кодекс, конфликт интересов, цифровизация, мониторинг, антикоррупционная политика

INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR PREVENTING CORRUPTION IN THE ACTIVITIES OF THE TEACHING STAFF

Abstract: This scientific article analyzes institutional mechanisms aimed at preventing corruption in the activities of professors and teachers. Ensuring transparency and accountability in the education system, preventing conflicts of interest, strengthening internal control systems, and implementing ethical standards are considered essential factors. It also highlights the role of the regulatory framework in combating corruption, the use of digital technologies, and the effectiveness of independent monitoring systems. Based on the research results, proposals and recommendations have been developed to improve effective institutional anti-corruption mechanisms in higher education institutions.

Keywords: corruption, higher education, faculty, institutional mechanisms, transparency, accountability, internal control, code of ethics, conflict of interest, digitalization, monitoring, anti-corruption policy

Bugungi globallashuv sharoitida korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ham jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimidagi korrupsiya jamiyatning intellektual salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Korrupsiya - bu davlat yoki tashkilot resurslaridan shaxsiy manfaat yo‘lida noqonuniy foydalanish bo‘lib, u ta’lim sifatining pasayishiga olib keladi. Professor-o‘qituvchilar faoliyatida korrupsiya holatlari (pora olish, baholashda adolatsizlik, plagiat, nepotizm) ta’lim tizimining asosiy tamoyillari adolat, shaffoflik va meritokratiyaga zid hisoblanadi. Shu sababli mazkur muammoni bartaraf etishda institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Korrupsiyaga qarshi kurash har qanday demokratik jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki korrupsiya nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligiga putur yetkazadi, balki fuqarolarning davlat idoralariga bo‘lgan ishonchini susaytiradi, iqtisodiy o‘sish jarayonlariga to‘siq bo‘ladi va sud tizimining asosiy vazifasi bo‘lgan adolatni ta’minlashning oldini oladi. O‘zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimida so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasi tubdan isloh qilinib, ushbu xavfning ildizini bartaraf etish, adolatli va shaffof sudlovni ta’minlash borasida qator samarali ishlar amalga oshirildi[1].

Korrupsiya tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u mansab yoki vakolatdan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanishdir. Korrupsiya - davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda, g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida, o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir”. Poraxo‘rlik, keng ma’noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurashish choralarini bilishimiz lozim bo‘ladi. Oliy ta’lim tizimida korrupsiya talabalarni o‘qishga qabul qilishda noqonuniy to‘lovlar, baholashda adolatsizlik va pora olish, ilmiy unvonlar va lavozimlarni noqonuniy ravishda taqdim etish, davlat grantlarini noto‘g‘ri taqsimlash, buyurtma asosida ilmiy ishlar yozish ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Uning oqibatlari esa juda turlicha va, ming afsuski, achinarli. Ta’lim sifati pasayadi, yaxshi bilimli talabalar emas, pora berganlar qadriyatlar shakllanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir insonning o‘zidan boshlanadi. Uni kamaytirish va oldini olish uchun Axmedova D.K quyidagi choralar muhimliligini aytgan[2]:

a) Qonunchilik asosini kuchaytirish: oliy ta’lim tizimida poraxo‘rlikka qarshi maxsus qonunlar ishlab chiqish; intizomiy va jinoiy javobgarlik choralarini qat’iy qo‘llash;

b) Shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash: baholash tizimini avtomatlashtirish; o‘qishga qabul jarayonlarini raqamlashtirish; o‘quv jarayonida barcha hujjatlar va ma’lumotlarni ochiq e’lon qilish;

c) Axloqiy va ma’naviy tarbiyani kuchaytirish: Talabalar va o‘qituvchilarda halollik, vijdon, adolat tushunchalarini mustahkamlash zarur.

Shuningdek **antikorrupsiya** madaniyatini shakllantirish bo‘yicha maxsus kurslar va seminarlar o‘tkazish, fuqarolik nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik va talabalarni kuzatuv mexanizmlariga jalb qilish, “Ishonch qutilari” va onlayn murojaat tizimlarini joriy etish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K. Sharipovning “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarining ijrosi hamda sohada korrupsiya omillarini bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi axborotini eshitib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ta’kidlaydiki, keyingi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda[6].

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim muassasalarida korrupsiya holati deyarli uchramaydi. To‘plangan tajriba va ko‘rgan tizimlardan kelib chiqib, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarini yangi bosqichga olib chiqish va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ikkita taklif bergan.

Birinchi taklif email pochta tizimi. Bu tizimni yaratish uchun universitet yoki institut kesimida barcha talabalar va o‘qituvchi (xodim)larning alohida Email pochtalarini yaratish kerak. So‘ngra talabalarga o‘tiladigan fanlardan so‘rovnomalar tayyorlab, har bir semestr oxirida Email orqali javob olish lozim. So‘rovnoma asosida talabalar har bir fan bo‘yicha dars sifati va korrupsiya holatini baholaydi.

Ikkinchi taklif universitetlarni xalqarolashtirish. Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, respublikadagi kamida o‘nta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (QS, THE yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 talikka kiritish belgilangan[7].

Professor-o‘qituvchilar faoliyatida korrupsiya, quyidagi sabablarni asosiy qilib ko’rsatsak bo’ladi:

a) **past nazorat darajasi** - bu oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar faoliyati ustidan samarali monitoring, audit va tekshiruv tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi yoki umuman mavjud emasligi holatidir.

b) **manfaatlar to‘qnashuvi** - bu professor-o‘qituvchining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida uning shaxsiy manfaatlari (moddiy, qarindoshlik, do‘stlik yoki boshqa manfaatlar) xizmat majburiyatlariga zid keladigan holatdir. Ya’ni, o‘qituvchi o‘z vazifasini xolis va adolatli bajarishi kerak bo‘lgan vaziyatda, shaxsiy manfaatlari qaroriga ta’sir ko‘rsatadi.

c) **past maosh va motivatsiya -** Professor-o‘qituvchilar faoliyatida past maosh va motivatsiya yetishmasligi - bu xodimlarning mehnatiga yetarlicha moddiy va ma’naviy

rag‘bat berilmasligi natijasida ularning ishga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyatining pasayishi holatidir. Agar Professor-o‘qituvchi: o‘z mehnatiga mos yetarli ish haqi olmasa, ijtimoiy ehtiyojlari qisman qondirilmasa, mehnati adolatli baholanmasa, unda u qo‘shimcha daromad topishga moyillik sezishi mumkin. Baholashda adolatsizlikka yo‘l ochishi va talabadan yoki boshqa manbadan noqonuniy foyda olish ehtimolini oshirishi yoki “ish sifati emas, daromad muhim” degan noto‘g‘ri qarashni kuchaytirishi mumkin.

d) **tizimdagi shaffoflik yetishmasligi**- bu tashkilot yoki muassasada qarorlar qabul qilish jarayoni, resurslar taqsimoti, baholash va nazorat mexanizmlari ochiq va tushunarli emasligi holatidir. Bunday vaziyatda jarayonlar yashirin tarzda amalga oshiriladi, axborot cheklangan bo‘ladi va manfaatdor tomonlar (talabalar, o‘qituvchilar yoki jamoatchilik) to‘liq ma’lumotga ega bo‘la olmaydi. Shaffoflikning yetishmasligi korrupsiya uchun “qulay muhit” yaratadi, chunki nazorat va javobgarlik sust bo‘lgan joyda noqonuniy harakatlarni yashirish osonlashadi. Natijada adolat tamoyillari buziladi va tizimga ishonch kamayadi.

O‘zbekistonda ham korrupsiyaning ta’limga ta’siri borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A.Saidov [3] o‘z tadqiqotida korrupsiyaning ta’lim sifatiga salbiy ta’sirini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, korrupsiya tufayli ta’lim muassasalarida malakasiz kadrlar faoliyat yuritishi, o‘quv dasturlari va darsliklar sifati pasayishi, ta’lim jarayonida suiste’molliklar yuz berishi kabi holatlar kuzatiladi.

B.To‘rayev [4] esa korrupsiyaning o‘qituvchilar va o‘quvchilar ongiga salbiy ta’sirini tadqiq etgan. Uning ta’kidlashicha, korrupsiya tufayli o‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida poraxo‘rlik, tanish-bilishchilik, korrupsion sxemaler keng tarqaladi. Bu esa ta’lim ishtirokchilarining ma’naviyatiga putur yetkazadi, ularning jamiyatga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

D.Abdullayeva [5] oliy ta’limdagi korrupsiyaning oldini olish omillarini o‘rgangan. Uning ta’kidlashicha, oliy ta’lim muassasalarida shaffoflikni ta’minlash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilar va talabala orasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Saidov va D.Abdullayevalarning fikrlari biz uchun maqul chunki ularni fikrlarida ta’lim sohasidagi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, nazoratni kuchaytirish, shaffoflikni taminlash, professor- o’qituvchilar va talabalar orasidagi murosasizliklarni bartaraf qilish va boshqa shunga o’xshash muhim vazifalar haqida keltirib o’tilgan. Korrupsiyani yo’qotish uchun eng avvalo talabalarga profilaktika o’tishdan emas balki professor - o’qituvchilardan boshlash kerak nega deganda talabalar oliy bilim yurtlaeida yaxshi baholar olishn uchun eng oson yo’lni izlashga tushushida ayrimlarning o’zlari to’g’ridan to’g’ri o’qituvchilarga pora taklif qilganini ham barchamiz yaqqol ko’rib yurgandirmiz.

Tepada takidlab o’tganimizdek past maosh va rag’batlantirishlar yo’q bo’lsa o’qituvchilar ham oson daromand ishlab topgilari kelib qolishi bejizmas. Bu oqibatlarni bartaraf qilish uchun eng avvalo har bir kadr uchun o’zining saviyasi o’ziga ko’rsatgan holda ularni rag’batlantirib va maoshlarini ko’taribv borish kerak. Muhtaram Prezidentimiz bu borada keng ko’lamli ishlar olib bormoqda va professjr -o’qituvchilarimizning oylik maoshlarini har 6 oydan oshirib eng yaxshi kadrlar uchun rag’batlantirish ham elon qilmoqda.

Taklifimiz shundan iboratki ma shu yo’sinda davom qilib va yanada qonunchiliklarimizni mustahkamlab nazoratni kuchaytirish va har 6 oydan professor -

o’qituvchilar bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish smenarlarini o’tkazish kerak va talabalarga ham har bir o’qituvchi tushuntirib borishi va ular eng yetuk mutaxasisslar bo’lib yetishib chiqishiga ishontirish ularga motivatsiyalar va o’zida bor bilim va ko‘nikmalarining hammasini berishga harakat qilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://gov.uz/
2. https://zendo.org/ Oliy ta’limda Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish. Axmedova D.K.
3. Saidov, A. (2020). Korrupsiya va uning ta’limga ta’siri. Huquq va boshqaruv, 2, 34-39
4. To‘rayev, B. (2018). Ta’limda korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb masalalari. Pedagogika, 4, 23-28.
5. Abdullayeva, D. (2019). Oliy ta’limda korrupsiyaning oldini olish omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3, 45-51
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 23.12.2025 yildagi 1592-V-son
7. Otabek Umarov, Vengriyaning Debrecyen universiteti doktoranti